

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI**

PhD.03/30.12.09.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AKBAROV ABDURAXMON IMINJON O'G'LI

**O'QLARARO MASOFASI O'ZGARUVCHAN ZANJIRLI
UZATMALARDA ZANJIR TARANGLIGINI TA'MINLASH USULINI
TADQIQ ETISH**

**05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina
detallari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Akbarov Abduraxmon Iminjon o'g'li

О'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmalarda zanjir tarangligini
ta'minlash usullarini tadqiq etish 3

Акбаров Абдурахмон Иминжон угли

Исследование методов обеспечения натяжения цепи в цепных передачах с
переменным межосевым расстоянием 21

Akbarov Abdurakhmon Iminjon ugli

Research of methods for ensuring chain tension in chain drives with variable center
distance 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI**

PhD.03/30.12.09.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AKBAROV ABDURAXMON IMINJON O'G'LI

**O'QLARARO MASOFASI O'ZGARUVCHAN ZANJIRLI
UZATMALARDA ZANJIR TARANGLIGINI TA'MINLASH USULINI
TADQIQ ETISH**

**05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina
detallari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4883 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi namangan davlat texnika universiteti bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.nammqi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Turdaliyev Voxidjon Maxsudovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Djurayev Anvar Djurayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Mirzaxonov Yunus Umarovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.90.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 9 » 12 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160103 Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: www.namdtu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103 Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: www.namdtu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 9 » 12 kuni tarqatildi.
(2025 yil « 30 » 10 dagi № 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.G'.Bayboboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

V.M.Turdaliyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

A.X.Umurzaqov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarishning barcha sohalarida energiya va resurstejamkor, yuqori ish sifatiga ega, parametrlari tez sozlanadigan hamda moslashadigan mashina va mexanizmlarning yangi turlarini yaratish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish yetakchi o‘rinni egallamoqda. «Dunyoda texnologik mashinalarning ishchi organlaridagi ishqalanishni 10-15 foizga kamaytirish orqali katta miqdordagi energiyani tejash imkoniyati mavjudligini hisobga olsak»¹, ish jarayonining o‘zgarishiga tez moslasha oladigan, parametrlari avtomatik sozlanadigan, zanjirdagi tebranishlari so‘no‘vchi zanjirli uzatmalarning konstruksiyalarini ishlab chiqish hamda ularni hisoblash usullarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli, ish sifati yuqori, shovqin darajasi past va parametrlari avtomatik sozlanadigan egiluvchan bo‘g‘inli mexanizmlarni texnologik mashinalarning yuritmalarida keng qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda mashinasozlikning yuqori sur‘atlar bilan rivojlanishi mashinalar ishchi organlari va yuritmalarida qo‘laniladigan uzatish mexanizmlari, jumladan kinematik imkoniyatlari keng hamda ish jarayonlarga moslashadigan zanjirli uzatmalarning konstruksiyalarini yaratish va ularni hisoblashning fundamental asoslarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda. Jumladan, egiluvchan bo‘g‘inli mexanizmlarda ishqalanishni, yeyilishni, shovqin va tebranishni kamaytirish, ishlab chiqarishdagi turli texnologik mashinalari yuritmalarida qo‘llaniladigan, texnologik jarayonga moslashadigan hamda o‘zgaruvchan parametrli mexanizmlarning konstruksiyalarini yaratish, ularning texnologik ish jarayonlarini asoslash va hisoblash usullarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda, texnologik mashinalar ishchi organlari va uzatish mexanizmlarini hisoblashning ilmiy asoslari yaratilmoqda, ilmiy hajmdor, mashinalar yuritmalarida ishlatiladigan parametrlari avtomatik boshqariladigan, parametrlari o‘zgaruvchan zanjirli uzatmalarning loyihalash hamda hisoblash usullarini rivojlantirish bo‘yicha, shuningdek zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish orqali sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mashinasozlikni rivojlantirish, resurs va energiyatejamkorlikni ta‘minlash uchun mashina va mexanizmlarning yangi avlodlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlarni olib borishga hususan, sanoat uchun yuqori samarali va resurstejamkor mashinalar ishlab chiqish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni

¹. www.eurasiancommission.org

kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish»² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan texnologik mashinalarning rotasion ishchi organlari uchun uzatish mexanizmlarning yangi konstruksiyalarini yaratish muhim masalalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2023-yil 18-dekabrda PQ-397-son «Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi, 2024-yil 15-avgustda PQ-295-son «Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan uzatish mexanizmlarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularni kinematik va dinamik analizi hamda sintezi bo'yicha qator izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Shvesiya olimi I.Troedsson zanjirli uzatmalarning tortish qobiliyatlarini oshirish bo'yicha, Serbiya olimlari M.Rackov, S.Kuzmanovic, I.Knezevic, M.Cavic, M.Pencic, D.Cavic, N.F.Cofaru zanjirli uzatmalarni hisoblash usullarini tadqiq etib, ularni harakat qonunlarini aniqlash usullarini ishlab chiqishgan bo'lsa, Rossiya olimlari И.П.Глуценко, С.А.Метильков, А.А.Петрик, СБ.Бережной, В.М.Грышенков va boshqalar zanjirli uzatmalarning ishonchligini oshirish, harakat jarayonidagi shovqinlarni pasaytirish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamizda texnologik mashinalar uchun uzatish mexanizmlarning yangi avlodlarini yaratish va ularning hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha, jumladan mexanizmlarni hisoblash usullarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tabqiqotlar bilan H.H.Usmonxo'jayev, K.A.Karimov, R.I.Karimov, Sh.P.Alimuxamedov, A.X.Umurzaqovlar, parametrlari o'zgaruvchan uzatish mexanizmlarining konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning kinematik va dinamik tahlil qilish bo'yicha A.D.Djurayev, J.Muxamedov, Sh.Sh.Kenjaboyev, A.Mamaxonov, V.M.Turdaliyev va boshqalar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida yaratilgan mashina va mexanizmlar mashinasozlikning turli yo'nalishlarida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan, lekin ish jarayonlarini o'zgarishiga moslasha oladigan, kinematik imkoniyatlari kengaytirilgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmalarning konstruksiyalarini va ularning hisoblash usullarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muxandislik qurilish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining AL-5121081266-sonli "Tuproqqa ishlav beruvchi qishloq xo'jaligi texnikalarining vibrasion mexanika prinsiplariga asoslangan yangi avlod konstruksiyalari ishlab chiqish" (2023-2024) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmalarda zanjir tarangligini ta'minlash usularini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zanjir tarangligini taminlash usullari, ularni ish ko'rsatkichlariga ta'siri va hisoblash usulari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish;

texnologik mashinalar yuritmalari uchun o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma konstruksiyasini ishlab chiqish;

o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmada zanjir tarmoqlari uzunliklarini o'zgarishlarini nazariy tadqiq etish;

o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning dinamik tahlili qilish orqali zanjir tarmoqlaridagi taranglik kuchini aniqlash imkonini beradigan analitik ifodani keltirib chiqarish;

zanjir tarmoqlarining tebranishlarini nazariy usulda tadqiq etish orqali tebranish qonuniyatlarini aniqlash;

tajribaviy tadqiqotlar asosida vallardagi burovchi momentlar va zanjir erkin tarmog'ining tebranish qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida texnologik mashinalar rotasion ishchi organlari uzatish mexanizmidagi o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma olingan.

Tadqiqotning predmeti o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning dinamik va matematik modellari, uzatmaning parametrlari, ish rejimlari va tebranishlari hamda ularning o'zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kompleks tadqiqot usullardan, jumladan, nazariy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan zanjirli uzatmalarning geometrik va dinamik parametrlarini asoslashda nazariy mexanika, mexanizmlar nazariyasi va mashina detallarining analitik usullaridan, dinamik masalalarni yechishda matematik modellashtirish usulidan, tajriba-sinovlarda o'tkazishda texnologik mashinalarni sinash va tenzometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnologik mashinalarning uzatish mexanizmlari uchun ishchi organlarni texnologik jarayonga tez moslashish imkonini beradigan, zanjirining tarangligi avtomatik ta'minlanadigan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning yangi konstruksiyadagi o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma zanjiri tarmog'i uzunligini aniqlash imkoninini beradigan analitik ifoda koromislarning uzunligi va burilish burchagining o'zgarishini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan konstruksiyalari ishlab chiqilgan;

taranglash qurulmasidagi prujinaning bosim kuchi hisobiga zanjirning yetakchi tarmog'ida hosil bo'ladigan taranglik kuchini aniqlash imkoninini beradigan analitik ifoda zanjir yetakchi tarmog'ining qiyalik burchagi va markazdan qochma kuch

ta'sirini inobatga oluvchi koeffitsiyentni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

o'qlararo masofasi o'zgaruvcha zanjirli uzatma zanjirining yetakchi tarmog'idagi umumiy taranglik kuchini aniqlash imkonin beradigan analitik ifoda taranglash qurilmasidagi prujinaning bosim kuchini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

yangi konstruksiyadagi o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma zanjiri tarmog'i uzunligini aniqlash imkonin beradigan analitik ifoda koromislarning uzunligi va burilish burchagining o'zgarishini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnologik mashinalarning rotasion ishchi organlari uzatish mexanizmlari uchun ish jarayonlarining o'zgarishlariga moslasha oladigan, zanjir tarangligi avtomatik taranglanadigan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashinaning uzatish mexanizmiga qo'llanilganda mashinaning ish unumdorligini 8-10 % ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, zanjirli uzatmaning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika va oliy matematika qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribaviy tadqiqotlar tenzometrik usullardan foydalanib o'tkazilgan, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashinasiga qo'llanilgandagi sinovlarning ijobiy natijalari va amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnologik mashinalarning rotasion ishchi organlari uzatish mexanizmi uchun ish jarayonlarining o'zgarishlariga moslasha oladigan, zanjir tarangligi avtomatik taranglanadigan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning konstruksiyasini ishlab chiqilganligi va hisoblash usullarini rivojlantirilganligi hamda nazariy va tajribaviy izlanishlar asosida uning parametrlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashina siquv barabaniga qo'llanilganda ekspluatasion xarajatlar kamayishi va samaradorlikni yuqori bo'lishini ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmalarda zanjir tarangligini ta'minlash usularini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

texnologik mashinalarning rotasion ishchi organlari uzatish mexanizmlari uchun o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning texnik yechimiga O'zbekiston Respublikasi foydali modeli uchun patent olingan («Zanjirli uzatma», № FAP 01974. 27.05.2022 y.). Natijada, ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashina siquv barabani uzatish mexanizmining konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

uzatish mexanizmida o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmasi bo'lgan ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashina Namangan viloyatidagi "Yuksalish charm" MCHJ va "Sulaymon shox charm" MCHJ larida joriy etilgan («O'zcharsanoat» uyushmasining 20-iyun 2025-yildagi 03-07/1846-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov berishda ish unumini 8-10 % ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Masalaning qo'yilishi va holati**» deb nomlangan birinchi bobida zanjirli uzatmalarni konustruksiyalari va turlari, zanjir tarangligini taminlash usullari hamda ularni ish ko'rsatkichilariga ta'siri, hisoblash usullari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan.


Tahlillar asosida quyidagilarni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda ishlab chiqarishdagi texnologik mashinalar va ularning rotasion ishchi organlari yurutmalari uchun o'zgaruvchan parametrli va boshqariladigan uzatish mexanizmlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu boisdan, kinematik imkoniyatlari kengaytirilgan mexanizmlarni yaratish masalasini yechishga e'tibor qaratish lozim. O'zgaruvchan parametrli uzatish mexanizmlarini turli texnologik mashinalar yuritmalariga qo'llash orqali harakat qonunlarini boshqarish va natijada energiya hamda mehnat tejamkorligiga erishish mumkin ekan.

Dissertatsiyaning «**O'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmani nazariy tatqiq etish**» deb nomlangan ikkinchi bobida, taranglash rolklari tarkibli bo'lgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish, zanjir tarmoqlari uzunliklarini o'zgarishlarini nazariy usulda aniqlash, o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma zanjiri tarmoqlaridagi

taranglik kuchini va zanjir tarmoqlarining tebranishlarini nazariy usulda tadqiq etish bo'yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.


O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmaning konstruksiyalari ishlab chiqildi (1-rasm).

Taklif etilayotgan zanjirli uzatma quyidagilardan iborat, yetakchi 1 va yetaklanuvchi yulduzchalar 2, zanjir 3, yetaklanuvchi yulduzcha 2 mahkamlangan qo'zg'aluvchan richag 4, tarkibli taranglovchi yulduzchalar 5 va 6 mahkamlangan ikki yelkali tarkibli richag 7. Tarkibli taranglovchi yulduzcha 5 va 6 lar tarkibida o'q 8, unga kiydirilgan metall vtulka 9, rezinali vtulka 10 va taranglovchi yulduzcha gardishi 11 larda iborat. Richag 4 korpusga O_2 nuqtada, yetaklanuvchi yulduzcha 2 esa richag 4 ga O_3 nuqtada sharnirli mahkamlangan bo'lsa, tarkibli richag 7 ham o'z navbatida richag 4 ga qo'zg'almas mahkamlangan. Ish jaryonida yetakchi yulduzcha 1 va yetaklanuvchi yulduzcha 2 larning o'qlari orasida masafa o'zgarganda zanjir 3 ning tarangligini avtomatik ta'minlashi uchun ikki yelkali richag 7 tarkibli qilib tayyorlangan. Ikki yelkali tarkibli richag 7 ning ikki yelkasi 12 va 13 lar ichi bo'sh silindrsimon ko'rinishida bo'lib, ularning ichiga prujina 14 va 15 lar o'rnatilgan. Prujina 14 va 15 larning bir uchi ikki yelkali tarkibli richag 7 ning asosiga, ikkinchi uchi esa polzun 16 va 17 larga mahkamlangan.



1-rasm. O'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma

1-rasmda keltirilgan zanjirli uzatmaning zanjiri tarmoqlari uzunliklarining o'zgarishlarini nazariy usulda aniqlash uchun uni ekvivalent bo'lgan richagli mexanizmga almashtirib olamiz. Tavsiya etilgan zanjirli uzatma zanjiri tarmoqlari teng va ularning o'zgarish xususiyatlari bir xil bo'lganligi sababli, bitta tarmog'i uzunligining o'zgarishini ko'rib chiqamiz.



2-rasm. Uch vektor konturli besh bo‘g‘inli richagli mexanizimning sxemasi


Bunda yopiq konturli vektor usulidan foydalanamiz. Yetakchi va yetaklanuvchi yulduzchalar radiusi, zanjir tarmog‘i va o‘qlararo masofasidan iborat $O_1ABO_3O_2$ yopiq kontur 2-rasmda keltirilgan. Zanjir tarmog‘i uzunligini aniqlash uchun $O_1ABO_3O_2$ yopiq konturni uchta yopiq vektorli O_1AO_2 , O_2BO_3 va O_2AB koturlarga ajratamiz.

O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar asosida zanjir tarmoqlari uzunliklarining aniqlash imkonini beradigan quyidagi ifoda keltirib chiqarildi

$$\vec{l} = \frac{\vec{r}_2 \cos \left[\arcsin \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right] + \vec{l}_2 \sin \varphi_5}{\sin \left(\arctg \frac{\vec{r}_2 \cos \left[\arcsin \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right] + \vec{l}_2 \sin \varphi_5}{-\vec{r}_2 \sin \left[\arccos \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right] - \vec{l}_2 \cos \varphi_5} \right)} - \frac{\vec{r}_1 \cos \left[\arcsin \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right]}{\sin \left(\arctg \frac{\vec{r}_1 \cos \left[\arcsin \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right]}{\vec{l}_1 + \vec{r}_1 \sin \left[\arcsin \left(\frac{t}{2A_0} \left(\frac{1}{\sin \tau_2} - \frac{1}{\sin \tau_1} \right) \right) \right]} \right)}, \quad (1)$$

bunda t -zanjir qadami, m; A_0 -boshlang‘ich o‘qlararo masofa, m; τ_1 va τ_2 -yulduzchalar qadamining yarmiga to‘g‘ri keladigan burchak, grad, r_1 va r_2 -krivoship uzunliklari, φ_5 -koromislarning burulish burchagi, grad.


Zanjir tarmog‘ining o‘zgarish qonuniyatini aniqlash uchun (1) tenglamani sonli yechimini Microsoft Office Exsel dasturida amalga oshirildi. Sonli yechim misol tariqasida parametrlarning quyidagi qiymatlarida bajarildi: $l_1=250$ mm; $r_1=r_2=760$ mm; $l_2=150$ mm; $\varphi_5=0^\circ, 10^\circ, 20^\circ$.



3- rasm. l ning uzunligini φ_5 ga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyati

3-rasmdan ko‘rinadiki, koromislarning burilish burchagi 0° ni tashkil etganda zanjir tarmog‘i l ning uzunligi 1920 mm tashkil etdi, koromislarning burilish burchagi 10° ni tashkil etganda esa zanjir tarmog‘i l ning uzunligi 1918,09 mm ni va koromislarning burilish burchagi 20° ni tashkil etganda zanjir tarmog‘i l ning uzunligi 1912,41 mm bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Demak, yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki koromislarning burilish burchagi ortgani sari l (AV) ning uzunligi o‘zgarishini ya‘ni kamayib borishi aniqlandi.

Nazariy tadqiqotlarda 4-rasmda keltirilgan zanjirli uzatma zanjiri yetakchi tarmog‘idagi taranglik kuchining hisobiy qiymatini, quyidagicha ifodalaymiz




4-rasm. Taranglash qurilmasi tarkibli bo‘lgan o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma

$$S_1 = S_p + S_B + S_C + S_{1n}, \quad (2)$$

bunda S_p -ishchi taranglik kuchi, N; S_B -zanjir og‘irligi hisobiga hosil bo‘ladigan taranglik kuchi, N; S_C -markazdan qochma kuch ta’sirida hosil bo‘ladigan og‘irlik

$$S_1 = \frac{2M_1}{d_1} + qga_w(1 + 5\cos^2 \gamma) + qg^2 + \frac{F_n}{2\sin\left(\arctg\left(\frac{0,72\cos\gamma^4\sqrt{a_w^2 - c_\omega^2}}{1000k}\right)\right)}. \quad (7)$$

Tavsiya etilgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma zanjiri erkin tarmog'ining tebranishlarini tatqiq etamiz. Bunda izlanishlarni soddalashtirish maqsadida zanjir tarmog'ining AB qismini alohida ajratib olamiz (6-rasm).




6-rasm. Zanjirning erkin tarmog'i (AB)

6-rasmda keltirilgan zanjirning erkin tarmog'ining tebranishlarini o'rganish uchun uni bir masali mexanik tizim sifatida qaraymiz (7-rasm).

7-rasmda keltirilgan hisob sxemaga muvofiq zanjirning erkin tarmog'ining xarakat tenglamasini tuzib olamiz

$$q \cdot l \cdot h'' = g \cdot q \cdot l - ch - bh', \quad (8)$$

bunda l -erkin tarmoq uzunligi, m; c -bikirlik koeffitsiyenti, N/m; b -dissipatsiya koeffitsiyenti, Ns/m; h -zanjir tarmog'ining salqiligi, m; h' va h'' -zanjir tarmog'ining salqiligidan olingan birinchi va ikkinchi tartibli hosilalar, m/s va m/s².




7-rasm. Hisob sxema

(8) dagi differensial tenglama ustida o'tkazilgan bir nechta matematik amallardan so'ng zanjir erkin tarmog'ining tebranishini ifodalovchi quyidagi tenglamani olamiz


$$h(t) = e^{-\frac{A}{2}t} \cdot \left(\frac{bgq^2l^2}{c(4cql - b^2)} \sin\left(\left(\frac{b^2 - 4cql}{q^2l^2}\right)\frac{t}{2}\right) - \frac{gql}{c} \cos\left(\left(\frac{b^2 - 4cql}{q^2l^2}\right)\frac{t}{2}\right) \right) + \frac{gql}{c}. \quad (9)$$

Zanjir erkin tarmog'ining tebranish qonuniyatlarini aniqlash uchun (9) tenglamaning sonli yechimini Microsoft Office Exsel dasturi orqali parametrlarning quyidagi qiymatlarida amalga oshiramiz, ya'ni $b=3$ Ns/m, $g=9,81$ m/s², $q=1,5$ kg/m, $t=(0\div 15)$ s, $c=(350\div 750)$ N/m, $e=2,7$.


8-rasmlardan ko'rinadiki, prujinaning bikirlik koeffitsiyenti $c=350$ N/m ni tashkil etganda, zanjir erkin tarmog'ining vertikal yo'nalishdagi tebranish qamrovi 0,023 m ni tashkil etib, uning so'nish davri 5,4 sekundni tashkil etar ekan. Prujinaning bikirlik koeffitsiyenti $c=550$ N/m va $c=750$ N/m ni tashkil etganda esa zanjir erkin tarmog'ining vertikal yo'nalishdagi tebranish qamrovi mos ravishda 0,028 m va 0,042 m hamda ularning so'nish davrlari esa mos ravishda 5,1 sekund va 4,8 sekundni tashkil etar ekan.



a



v



b


a- $c = 350$ N/m; b- $c=550$ N/m; v-
 $c=750$ N/m

8-rasm. Zanjir erkin tarmog'ining tebranish qonuniyatlari


9-rasmdan ko'rinadiki, taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirlik koeffitsiyenti ortishi bilan zanjir erkin tarmog'ining vertikal yo'nalishdagi tebranish qamrovi egri chiziqli qonuniyatda ortib borar ekan. Lekin, taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirlik koeffitsiyenti ortishi bilan zanjir erkin tarmog'ining vertikal yo'nalishdagi tebranish davrlari egri chiziqli qonuniyatda kamayib borishini kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning «Tavsiya etilayotgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmani laboratoriya sharoitidagi sinovlari natijalari» deb nomlangan uchinchi bobida tajribaviy tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari, o'tkazish metodikasi, vallardagi burovchi momentlarni, zanjirning yetaklanuvchi tarmog'ini vertikal yo'nalishdagi tebranishlarini o'lchash, tajribaviy tadqiqotlarda aniqlangan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va tahlil qilish bo'yicha tadqiqot natijalari

keltirilgan. Tajribaviy tadqiqotlar Namangan davlat texnika universiteti “Mexanika” kafedrasining o‘quv-ilmiy laboratoriyasida o‘tkazildi. 10-rasmda tajriba o‘tkazilgan stendning elektrotenzometrik sxemasi keltirilgan.



9-rasm. Zanjir erkin tarmog‘ining vertikal yo‘nalishdagi tebranish qamrovi va so‘nish davrini prujining bikirlik koeffitsiyentiga bog‘liqlik grafigi




10-rasm. Elektrotenzometrik sxema

Elektrotenzometrik sxema quyidagilardan iborat: 1-elektrodvigatel, 2-ponasimon tasmali uzatma, 3-o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma, 4-qo‘l tormozi, 5, 6-tenzorezistorlar, 7, 8-tokos‘yomniklar, 9-Arduino UNO mikrokontroller, 10-kompyuter.

Tajribaviy tadqiqotlarda o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma yetaklanuvchi tarmog‘ining tebranish qonuniyatlarini hamda vallaridagi burovchi momentlarning o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash bosh vazifalardan etib belgilab olindi. Tajribalarni o‘tkazish uchun maxsus tajriba stendi tayyorlandi va uning elektrotenzometrik sxemasi 10-rasmda keltirilgan.


O‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma erkin tarmog‘ining tebranish qonuniyatlarini hamda vallaridagi burovchi momentlarning o‘zgarish qonuniyatlarini aks ettiruvchi qator

ossillogrammalar olindi. Olingan ossillogrammalar tahlili asosida parametrlarni bog‘liqlik grafiklari qurildi (11-rasmlar).



1- $F=20$ Nm; 2- $F=25$ Nm; 3- $F=30$ Nm

11-rasm. Zanjirli uzatmaning erkin tarmog‘i tebranishini taranglash qurilmasidagi prujinalarning bikirlik koeffitsiyentlariga bog‘liqlik grafigi



1, 4- $c=350$ N/m; 2, 5- $c=550$ N/m; 3, 6- $c=750$ N/m


12-rasm. Vallardagi burovchi momentlarning tebranish qamrovlarini taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirlik koeffitsiyentlariga bog‘liqlik grafigi

11-rasmdagi grafikdan shuni ko‘rish mumkinki, prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 350 N/m dan 750 N/m gacha ortganda zanjir erkin tarmog‘ining tebranishlarini amplitudasi egri chiziqli qonuniyatda ortar ekan. Olib borilgan tajriba tadqiqotlarda prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 350 N/m, aylanishlar sonining o‘rtacha qiymati esa 150 r/min tashkil etganda, zanjir erkin tarmog‘ining tebranishlari amplitudasining qiymati $h=4,5$ mm, prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 550 N/m ga ortirilganda $h=4,1$ mm va prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 750 N/m bo‘lganda esa $h=3,2$ mm ga teng bo‘lishi aniqlandi. Ushbu o‘zgarishlarni hosil qiladigan sabablar shuki, taranglash qurilmasidagi prujinasining bikirligi ortib borishi bilan zanjirdagi tebranishni yutish qobiliyati yo‘qolib borishi va prujinalarning amortizator vazifasini bajarmay qo‘yishini keltirish mumkin.

12-rasmda keltirilgan bog‘liqlik grafigidan ko‘rinadiki, qarshilik kuchining momenti 20 Nm dan 30 Nm gacha orttirilganda vallardagi burovchi momentlarning


tebranish qamrovlari egri chizikli qonuniyat bilan ortib borar ekan. Bunda taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirlik koeffitsiyentlari 350 N/m, 550 N/m va 750 N/m, qarshilik kuchining momentini qiymati 20 Nm bo‘lganda, yetakchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_1 mos ravishda 1,5 Nm, 1,1 Nm va 0,7 Nm, yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_2 mos ravishda 3,2 Nm, 2,6 Nm va 2,1 Nm bo‘lar ekan. Qarshilik kuchining momentini qiymati 30 Nm bo‘lganda esa, yetakchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_1 mos ravishda 2,8 Nm, 2,1 Nm va 1,5 Nm ga, yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_2 mos ravishda 4,2 Nm, 3,5 Nm va 3,1 Nm ga teng bo‘lar ekan.

13-rasmdagi bog‘liqlik grafigidan ma’lum bo‘lishicha, aylanish sonining ortib borishi vallardagi burovchi momentning tebranish qamrovlari ΔM_1 va ΔM_2 ni sezilarli kamayishiga olib kelgan. Jumladan, aylanish soni 200 r/min bo‘lganida, zanjirli uzatmaning yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_2 mos ravishda 3,1 Nm dan 4,2 Nm gacha egri chizikli qonuniyatda ortsa, aylanish soni 100 r/min bo‘lganda esa, yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_2 mos ravishda 2,1 Nm dan 3,2 Nm gacha ortib borgan.



1, 4- $n_2=200$ r/min; 2, 5- $n_2=150$ r/min; 3, 6- $n_2=100$ r/min

13-rasm. Vallardagi burovchi momentlarning tebranish amplitudalarini aylanishlar soniga bog‘liqlik grafigi



1, 4- $M=30$ Nm; 2, 5- $M=25$ Nm; 3, 6- $M=20$ Nm

14-rasm. Vallardagi burovchi momentlarning qarshilik kuchlarining momentiga bog‘liqlik grafigi

Jumladan, 14-rasmdan ma'lum bo'lishicha, qarshilik kuchining momenti 20 Nm dan 30 Nm ga ortganda yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi ΔM_2 mos ravishda 4,7-6,6 Nm oralig'ida bo'lishini ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda koromislarning burilish burchagining ortishi bilan vallardagi burovchi momentlarning tebranish qamrovi ham ortib borar ekan. Ya'ni, yetaklanuvchi valdagi burovchi momentning tebranish qamrovi, qarshilik kuchining momenti 30 Nm, aylanishlar soni 100 r/min, koromislarning burilish burchagi 0° , 10° va 20° bo'lganda, mos ravishda 4,7-6,6 Nm oralig'ida bo'lar ekan.

Tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, zanjirli uzatma vallaridagi burovchi momentlarning tebranish qamrovlarini kam bo'lishini ta'minlash hamda uni ravon va ishonchli ishlashi uchun koromislarning burilish burchagini minimal bo'lishiga erishish lozim ekan.

Dissertatsiyaning «**O'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmani joriy etish va iqtisodiy samaradorlik hisobi**» deb nomlangan to'rtinchi bobida joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirirgan.

Taklif qilinayotgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma ishchi vallarning geometrik o'lchamlari har xil va ishchi vallarning markaziy o'qlari masofasi o'zgarganda ham harakatni bir xil ta'minlay olish qobliyatiga ega. Harakatni bir xil ta'minlay olishi esa vallar va ishlab chiqarilayotgan ko'n yarim mahsuloti orasidagi ishqalanishni yo'qolishini ta'minlaydi.

FAP № 01974 zanjirli uzatmani ko'n yarim mahsulotini siqish mashinasiga qo'lash orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlaymiz.

Bizga ma'lumki, har bir jamiyatda ishlab chiqarishdagi ijtimoiy samaradorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sib borishni asosiy omili hisoblanadi.

Shuning uchun ham erkin iqtisodiy sharoitda ijtimoiy ishlab chiqarish jadalligini oshirish muhim masalalar qatoriga kiradi. Hozirgi kunda ko'plab resurslar miqdori chegaralangan bo'lib, bu resurslarning ayrim qismi chet davlatlardan olib kelinadi. Shu sababli mavjud resurslardan unumli foydalanish, foydali ish ko'fisiyentini oshirish, xorijiy va milliy sarmoyalarni ustuvor va iqtisodiy jihatlari yuqoriroq yo'nalishlarga jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taklif etilayotgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatmani ishlab chiqarishga joriy etish orqali 2880 soat ish jarayonidagi o'rtacha to'xtalishlar soni 14 martani tashkil etib, ya'ni ish vaqtini o'rtacha 14,4 soatida to'xtalishlar bo'lishi aniqlandi. Bu esa korxonaning ish jarayonini 2880 soat ichida 5,4 soat to'xtalishlarini oldi olindi. Natijada, ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov berishda ish unumini 8-10 % ga oshirishga erishildi.

Yuqorida o'tkazilgan hisoblar natijasiga ko'ra, MEZDRENIY mashinasining siqish barabani uzatish mexanizimiga taklif etilayotgan o'qlararo masofasi o'zgaruvchan zanjirli uzatma qo'llanilganda kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 251720000 so'mni tashkil etadi.

XULOSA

“O‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatmalarda zanjir tarangligini ta‘minlash usularini tadqiq etish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tadqiqotlar natijasida texnologik jarayonlarni o‘zgarishiga tez moslashadigan va zanjirining tarangligi avtomatik ta‘minlanadigan o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan, zanjirli uzatma konstruksiyasi tavsiya etildi.

2. O‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatmaga ekvivalent bo‘lgan besh bo‘g‘inli richagli mexanizmni geometrik tahlili asosida zanjiri tarmoqlari teng va ularning o‘zgarish xususiyatlari bir xil bo‘lganligi inobatga olib, bitta tarmog‘i uzunligining o‘zgarish qonuniyati aniqlandi.

3. O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar asosida o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma yetakchi tarmog‘idagi taranglik kuchini aniqlash imkonini beradigan analitik ifoda olindi va uning tahliliga ko‘ra, o‘qlararo masofaning kamayishi bilan zanjir yetakchi tarmog‘ining tarangligi ham kamayishi aniqlandi.

4. Zanjirning tebranishlari ularni yulduzchalardan chiqib ketishiga, yeyilish jarayonlarini tezlashishiga va shovqinni kuchayib ketishiga olib keladi. Tadqiq etilayotgan zanjirli uzatmada o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan bo‘lganligi sababli, ish jarayonida zanjir tarmoqlarida salqiliklar paydo bo‘ladi va bu esa tebranishlarni jadallashishini ko‘chaytiradi. Shuning uchun taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirlik koeffitsiyenti yuqori bo‘lishi talab etilar ekan.

5. O‘tkazilgan tajriba tadqiqotlarda prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 350 N/m, aylanishlar sonining o‘rtacha qiymati esa 150 r/min tashkil etganda, zanjir erkin tarmog‘ining tebranishlari amplitudasining qiymati $h=4,5$ mm, prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 550 N/m ga ortirilganda $h=4,1$ mm va prujinaning bikirlik koeffitsiyenti 750 N/m $h=3,2$ mm ga tebranishi aniqlandi. Taranglash qurilmasidagi prujinaning bikirligi oshib borishi bilan zanjirdagi tebranishni yutish qobliyatini yo‘qolib borishi va prujinalarning amartizator vazifasini bajarmay qo‘yishi mumkin ekan.

6. Zanjirli uzatma vallaridagi burovchi momentlarning tebranish qamrovlarini kam bo‘lishini ta‘minlash hamda uni ravon va ishonchli ishlashi uchun koromislarning burilish burchagini minimal bo‘lishiga erishish lozim ekan.

7. Yetakchi yulduzaning tishlar soni 18 ta, yetaklanuvchi yulduzchanning tishlar soni 22 ta, o‘qlararo masofa 90 cm, uzatishlar soni 1,2, koromislarning uzunligi 70 cm, zanjir qadami 15,875 mm, zanjirli uzatmaning vertikal tekislikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 45° ga teng bo‘lgan o‘qlararo masofasi o‘zgaruvchan zanjirli uzatma ishlab chiqarishga joriy etildi. Natijada, korxonaning ish jarayonidagi 2880 soat ichida 5,4 soat to‘xtalishlarini oldi olindi.

8. Taklif etilgan zanjirli uzatma, an‘anaviy zanjirli uzatmadan farqli ravishda zanjir tarangligini bir xil bo‘lishini va ko‘n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beradigan mashinani bir tekis ishlashini ta‘minlashi hisobiga yillik iqtisodiy samaradorlik ekspluatasion harajatlarni kamayishi ortidan 251720000 so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/30.12.09.2019.Т.90.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АКБАРОВ АБДУРАХМОН ИМИНЖОН УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДА ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАТЯЖЕНИЯ
ЦЕПИ В ЦЕПНЫХ ПЕРЕДАЧАХ С ПЕРЕМЕННЫМ МЕЖОСЕВЫМ
РАССТОЯНИЕМ**

05.02.02 –Теория механизмов и машин. Машиноведение и детали машин

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.3.PhD/T4883.

Докторская диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.namdtu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Турдалиев Вохиджон Махсудович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джураев Анвар Джураевич
доктор технических наук, профессор

Мирзаханов Юнус Умарович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

**Андижанский государственный
технический институт**

Защита диссертации состоится «27» 12 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.09.2019.T.90.01 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: 160103, г. Наманган, ул. Ислама Каримова, 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, www.namdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганский государственный технический университет (регистрационный номер 100). Адрес: 160103, г. Наманган, ул. Ислама Каримова, 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: namdtu_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан «9» 12 2025 года.
(Протокол рассылки № 82 «30» 10 2025 года).



Ш.Г.Байбобоев
Председатель научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

В.М.Турдалиев
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

А.Х.Умурзаков
Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученой степени, д.т.н., доцент

ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктор философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире во всех отраслях производства ведущее место занимает создание и внедрение в производство новых видов энерго-и ресурсосберегающих машин и механизмов с высоким качеством работы, быстро настраиваемыми и адаптируемыми параметрами. «Учитывая, что в мире существует возможность экономии большого количества энергии за счет снижения трения в рабочих органах технологических машин на 10-15 процентов»³, разработка конструкций цепных передач, способных быстро адаптироваться к изменениям рабочего процесса, с автоматической настройкой параметров, затухающими колебаниями в цепи, а также создание методов их расчета является одной из важных задач. Поэтому особое внимание уделяется широкому применению в приводах технологических машин механизмов с гибкими звеньями, обладающих высоким качеством работы, низким уровнем шума и автоматической настройкой параметров.

Высокие темпы развития машиностроения в мире требуют проведения научно-исследовательских работ, направленных на создание конструкций передаточных механизмов, используемых в рабочих органах и приводах машин, в том числе цепных передач с широкими кинематическими возможностями и адаптируемостью к рабочим процессам, а также на развитие фундаментальных основ их расчета. В частности, актуальным является проведение целенаправленных научных исследований по снижению трения, износа, шума и вибрации в механизмах с гибкими звеньями, созданию конструкций механизмов с переменными параметрами, адаптированных к технологическому процессу, используемых в приводах различных технологических машин в производстве, обоснованию их технологических процессов работы и развитию методов расчета. В этом направлении, в частности, создаются научные основы расчета рабочих органов и передаточных механизмов технологических машин, особое внимание уделяется развитию методов проектирования и расчета наукоемких цепных передач с автоматически управляемыми параметрами, используемых в приводах машин, а также улучшению качества и снижению себестоимости промышленной продукции путем широкого внедрения современной техники и технологий в производство.

В нашей республике реализуется ряд мер по развитию машиностроения, проведению широкомасштабных научных исследований по созданию новых поколений машин и механизмов для обеспечения ресурсо- и энергосбережения, в частности, по разработке высокоэффективных и ресурсосберегающих машин для промышленности. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие задачи, как « ... продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности

¹ www.eurasiancommission.org

в валовом внутреннем продукте, увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза, ...широкое внедрение программ повышения производительности труда в отраслях промышленности, ...сокращение потерь в отраслях промышленности и повышение эффективности использования ресурсов»⁴. При выполнении этих задач создание новых конструкций передаточных механизмов для ротационных рабочих органов технологических машин является одним из важных вопросов.

